



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

O‘SMIRLIK DAVRIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR VA AGRESSIV XULQNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Nafisa Abduyeva

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Psixologiya ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
nafisaabduyeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: Maqsuda Norbosheva,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti,
psixologiya f.f.d (PhD)
maqsuda_narboshova@tues.uz

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘smirlik davrida shaxslararo munosabatlarning shakllanishi hamda agressiv xulq-atvor bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. O‘smirlik davri shaxs psixologik rivojlanish davrining eng muhim va murakkab davrlaridan biri hisoblanib, bu davrda emotsional beqarorlik, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va nizoli vaziyatlar agressiv xatti-harakatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan ziddiyatlar, emotsional zo‘riqish, oilaviy muhitdagi muammolar va maktab jamoasidagi salbiy psixologik iqlim agressiv xulqning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Tadqiqot natijalarida ham agressiv xulqning o‘smirlarning shaxslararo munosabatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, shaxslararo munosabat, agressiya, agressiv xulq, psixologik rivojlanish, emotsional holat, kommunikativ kompetensiya, psixodiagnostika, profilaktika, ijtimoiy moslashuv.

Abstract

This article analyzes the formation of interpersonal relationships during adolescence and their connection to aggressive behavior. Adolescence is considered one of the most critical and complex stages of psychological development; during this period, emotional instability, difficulties with social adaptation, and conflict situations can trigger aggressive behavior. Conflicts in interpersonal relationships, emotional tension, problems within the family environment, and a negative psychological climate at school can contribute to the development of aggressive behavior. Research findings also indicate that aggressive behavior negatively affects adolescents' interpersonal relationships.

Keywords: adolescence, interpersonal relationships, aggression, aggressive behavior, psychological development, emotional state, communicative competence, psychodiagnostics, prevention, social adaptation.

Аннотация

В данной статье анализируется процесс формирования межличностных отношений в подростковом возрасте и их связь с агрессивным поведением. Подростковый возраст считается одним из наиболее критических и сложных этапов психологического развития; в этот период эмоциональная нестабильность, трудности социальной адаптации и конфликтные ситуации могут провоцировать агрессивное поведение. Конфликты в межличностных отношениях, эмоциональное напряжение, проблемы в семье и



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

неблагоприятный психологический климат в школе могут способствовать развитию агрессивного поведения. Результаты исследований также свидетельствуют о том, что агрессивное поведение негативно сказывается на межличностных отношениях подростков.

Ключевые слова: подростковый возраст, межличностные отношения, агрессия, агрессивное поведение, психологическое развитие, эмоциональное состояние, коммуникативная компетентность, психодиагностика, профилактика, социальная адаптация.

Kirish

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida yosh avlodning ruhiy salomatligini mustahkamlash, ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash hamda mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga yordamlashish davlatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'smirlik davrida shaxsning psixik rivojlanishida juda ko'p o'zgarishlarga uchraydi. Mazkur davr biologik yetilish, krizis davri bo'lganligi bilan bir qatorda emotsional beqarorlik, o'zini anglashning kuchayishi, mustaqillikka intilish va ijtimoiy mavqeni belgilash jarayonlari bilan tavsiflanadi.

Shaxslararo munosabatlar o'smirlik davrida, shaxsning shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Oila, maktab, tengdoshlar guruhi hamda ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqalar o'smirning qadriyatlari, xulq-atvori va emotsional barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur munosabatlarda yuzaga keladigan kelishmovchiliklar, rad etilish hissi, tengdoshlar va oila tomonidan bosim o'tkazilishi va oiladagi salbiy psixologik muhit agressiv reaksiyalarning shakllanishiga zamin yaratishi mumkin. Psixologik tadqiqotlarda agressiya shaxsning ichki zo'riqlilari, frustratsiya holati, salbiy emotsional kechinmalari



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

hamda ijtimoiy tajribasi bilan bog‘liq murakkab psixologik hodisa sifatida izohlanadi. O‘smirlik davrida agressiv xulq nafaqat individual xususiyatlar, balki ijtimoiy munosabatlar sifati bilan ham bog‘liq.

Tahlil va natija. O‘zbekiston psixologiya fanida **E.G‘.G‘oziyev, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov, B.R.Qodirov** va boshqa olimlarning ilmiy ishlari shaxs rivojlanishi, yosh psixologiyasi, muloqot psixologiyasi hamda tarbiya masalalarini yoritishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi va yordam beradi. Ushbu ilmiy qarashlarga tayangan holda o‘smirlik davrida shaxslararo munosabatlar va agressiv xulq o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

O‘smirlik davri bo‘yicha turli xil ilmiy izlanishlar olib boriladi va ko‘plab tadqiqot metodlari o‘tkaziladi. Bu tadqiqotni o‘tkazishdan maqsad, o‘smirlik davrida shaxslararo munosabatlarning agressiv xulq shakllanishiga ta'sirini ilmiy jihatdan aniqlash va o‘smirlarga psixologik tavsiyalar ishlab chiqish, ularga yordam berishga, ularni korreksiya qilishga yordam beradi.

Tadqiqotni o‘tkazish vazifalari ham mavjud: o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlarini tahlil qilish; shaxslararo munosabatlarning nazariy asoslarini yoritish; agressiv xulqning psixologik omillarini aniqlash; shaxslararo munosabatlar va agressiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik jihatdan tahlil qilish; psixologik profilaktika va korreksiya bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tahsil olayotgan 13–16 yoshli o‘smirlarning shaxslararo munosabatlarini tadqiqot orqali o‘rganish.

Tadqiqot predmeti: shaxslararo munosabatlar darajasi hamda agressiv xulq ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik.

Tadqiqotni tashkil etishda o‘smirlik davrida shaxslararo munosabatlar va agressiv xulqning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqot hisoblanadi.

Tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7–9-sinflarida tahsil olayotgan 13–



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

16 yoshdagi o'smirlar ishtirokida tashkil etilishi rejalashtirilgan. Tadqiqotda ishtirokchilar tasodifiy tanlash usuli asosida saralanadi. Tadqiqotning ishonchliligini oshirish maqsadida o'g'il va qiz bolalar sonining mutanosib bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Bu tadqiqotni o'tkazishda, tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, kuzatish metodi, suhbat metodi, psixologik testlar, so'rovnomalarni, matematik-statistik tahlil: Person korrelyatsiya koeffitsiyenti va Student t-mezonidan foydalanish mumkin.

Empirik tadqiqotda quyidagi metodikalardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Bass–Darki agressivlik diagnostikasi metodikasi.
2. T. Liri shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish metodikasi.
3. Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash metodikasi.
4. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan demografik so'rovnoma.

Bu metodikalar o'smirlarda agressiv xulqning darajasi hamda shaxslararo munosabatlarning xususiyatlarini to'g'ri baholash imkonini beradi.

O'smirlik davri psixologiyada eng murakkab rivojlanish bosqichlaridan biri ekanligi barchaga ma'lum. Ushbu davr biologik, psixologik va ijtimoiy o'zgarishlarning bir vaqtda kechishi va bu juda og'ir kechadigan davr hisoblanadi. Shaxsning o'zini anglash darajasi ortib borishi, mustaqillikka intilishi hamda tengdoshlar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi mazkur yoshning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. **E.G'. G'oziyevning** ilmiy qarashlariga ko'ra, o'smirlik davrida shaxsning emotsional sohasida keskin o'zgarishlar kuzatiladi. Ushbu o'zgarishlar muloqot sifati va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. **V.M. Karimovanning** tadqiqotlarida shaxslararo munosabatlarning psixologik mexanizmlari batafsil yoritilgan bo'lib, samarali muloqotning rivojlanishi agressiv xatti-harakatlarning kamayishiga xizmat qilishi ta'kidlangan. **G'.B. Shoumarov** yosh psixologiyasiga oid ilmiy izlanishlarida o'smirning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri uning shaxs sifatida shakllanishida



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

hal qiluvchi omillardan biri ekanligini qayd etadi. **B.R. Qodirov** esa shaxsning individual-psixologik xususiyatlari hamda tarbiya muhiti o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab beradi. Olimning fikricha, oiladagi emotsional qo'llab-quvvatlash darajasi agressiv xulqning oldini olishda muhim himoya omili hisoblanadi.

O'smirlik davrida ta'siri kuchli bo'ladigan bu oila muhiti, tengdoshlar muhiti hioblanadi. Oilasida tez-tez nizolar kuzatiladigan o'smirlarda agressivlik darajasi yuqori bo'ladi. Aksincha, ota-onasi bilan ishonchli muloqot qiladigan o'smirlarda agressiv reaksiyalar kamroq namoyon bo'ladi. Tengdoshlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan o'smirlarda kommunikativ faollik va ijobiy ijtimoiy moslashuv yuqori ekanligi kuzatiladi. Guruh tomonidan rad etilgan yoki kamsitilgan o'smirlarda esa agressiv xatti-harakatlar ko'proq uchraydi.

O'smirlik davri shaxsning psixologik va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, aynan shu davrda shaxslararo munosabatlarning sifati xulq-atvor shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

O'smirlik davrida shaxslararo munosabatlarning sifati agressiv xulqning namoyon bo'lish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi sog'lom psixologik muhit va ota-onalar bilan ishonchli muloqot agressiv reaksiyalarni kamaytiruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Tengdoshlar tomonidan qo'llab-quvvatlanish o'smirning ijtimoiy moslashuvi va emotsional barqarorligini mustahkamlaydi va ular o'zlarini erkin his qilishadi. Pedagog va maktab psixologining profilaktik faoliyati agressiv xulqning oldini olishda muhim ahamiyatga ega va o'smirda agressivlikni kamaytiradi. Psixologik treninglar, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish mashg'ulotlari va oilaviy maslahatlar agressiv xulqning kamayishiga yordam beradi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ADABIYOTLAR:

1. G‘oziyev E.G‘. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent. Toshkent: Sharq, 2010.
5. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2010.
6. Qodirov B.R. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent.
7. Haydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent.
8. O‘zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda ta'limga oid me'yoriy hujjatlar.